



# FARG‘ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

FARG‘ONA VILOYATINING  
SANOAT ISHLAB CHIQRISHI  
2024-YIL YANVAR-IYUL OYLARI  
(DASTLABKI MA'LUMOT)



**Tel.: 73-241-96-28**  
**[www.farstat.uz](http://www.farstat.uz)**



## Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra)



Bugungi kunda viloyatda 6 658 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 762 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 11,4 %i) Qo'qon shahriga, 726 tasi (10,9 %) Farg'ona shahriga, 601 tasi (9,0 %) Marg'ilon shahriga, 496 tasi (7,4%) Uchko'prik tumaniga va 396 tasi (5,9 %) O'zbekiston tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Shahar, tuman nomi	2024-yil 1-avgust holatiga korxonalar soni (birlik)		
	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan	Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarda shahar, tumanlar ulushi, % da
<b>Jami:</b>	<b>6658</b>	<b>831</b>	<b>100,0</b>
Farg'ona sh.	726	82	10,9
Qo'qon sh.	762	62	11,4
Quvasoy sh.	196	31	2,9
Marg'ilon sh.	601	70	9,0
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	307	36	4,6
Qo'shtepa	270	64	4,0
Bag'dod	328	56	4,9
Buvayda	265	32	3,9
Beshariq	196	22	2,9
Quva	294	43	4,4
Uchko'prik	496	51	7,4
Rishton	351	56	5,5
So'x	202	21	3,0
Toshloq	277	35	4,1
O'zbekiston	396	53	5,9
Farg'ona	259	43	3,8
Dang'ara	365	29	5,7
Furqat	168	31	2,8
Yozyovon	199	14	2,9



## Farg‘ona viloyati sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari

Dastlabki ma‘lumotlar bo‘yicha 2024-yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalari tomonidan 22 167,7 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2023-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi \*108,3% ni tashkil etdi.




Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining besh yillik ko‘rsatkichlari o‘shish tartibida, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yildan yilga o‘sayotganligini ko‘rsatadi.




## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Farg'ona viloyatida 2024-yilning yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi 5 433,1 ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich aholi ehtiyojlari ishlab chiqarish mahsulotlariga nisbatan o'sib borayotganini ko'rsatadi.



Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xaridorgirligi va aholi talablariga mosligini baholash uchun ham biz sanoat mahsulotlarining aholi jon boshiga to'g'ri kelish ko'rsatkichlarini hisoblab borishimiz kerak.

2024-yilning yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga to'g'ri kelgan sanoat mahsulotlari ko'rsatkichlari shuni bildiradiki, o'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat mahsulotlariga nisbatan aholining ehtiyoji o'sganligi hamda aholi sonining ham o'sib borayotganligini bildiradi.








*\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

### Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 20 442,0 mlrd.so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 92,2% ni, tashkil etdi.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **67,6 mlrd. soʻmni** yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,3 %** ini tashkil etdi.



### Yanvar-iyul

2022-y	45,7 mlrd. soʻm
2023-y	85,3 mlrd. soʻm
2024-y	67,6 mlrd. soʻm

### FHI, %da

2022-y	18,5%
2023-y	182,1%
2024-y	68,8 %

## C seksiya

### Ishlab chiqaradigan sanoat


2024-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **20 442,0 mlrd. soʻmni** yoki jami sanoat mahsulotlarining **92,2 %** ini tashkil etdi.

### Yanvar-iyul

2022-y.	15 148,3 mlrd. soʻm
2023-y.	15 990,9 mlrd. soʻm
2024-y	20 442,0 mlrd. soʻm

### FHI, %da

2022-y.	105,4%
2023-y.	103,1%
2024-y	109,8%



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'lish sur'ati**  
(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)

Dizel yoqilg'isi		Avtomobil benzini		Klinker sement	
2024	85,7	2024	82,2	2024	52,3
2023	155,7	2023	185,3	2023	27,5
2022	82,9	2022	86,4	2022	78,4
O'simlik yog'i (tozalangan)		Portlandsement		Yumshoq bug'doy va spelta uni	
2024	29,2	2024	60,8	2024	95,9
2023	48,1	2023	85,4	2023	76,9
2022	84,6	2022	99,4	2022	88,6
Neft bitumi		Aroq ming litr (100% spirt)		Uzum vinosi	
2024	78,0	2024	82,4	2024	2,6 m
2023	2,3 m.	2023	109,4	2023	81,8
2022	55,8	2022	55,3	2022	63,4
Karbamid		Paxta chigiti		Paxta linti	
2024	87,6	2024	98,6	2024	142,5
2023	109,7	2023	122,4	2023	96,9
2022	95,7	2022	81,5	2022	193,8

2024-yilning yanvar-iyul oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 172,7 ming tonna avtomobil benzini (2023-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 82,2%ni tashkil etgan), 229,6 ming tonna dizel yoqilg'isi (85,7%ni), 82 391,6 tonna paxta iplari mahsulotlari (116,7%ni) hamda 10 798,1 ming kv.metr paxtadan tayyorlangan matolar (55,3%ni tashki,etgan) ishlab chiqarilgan.




## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-iyul	2024-yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Avtomobil benzini, ming t	210,0	172,7	-37,3
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	138,0	132,4	-5,6
Paxta chigiti, ming t.	62,5	61,5	-1,0
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	5,0	1,4	-3,6


Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 10,3 % (2023-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 135,1%), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishining ulushi – 37,7% (2023-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,8 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 13,5% (2023-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,9%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 14,1 % (2023-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 98,1 %)ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,6 %ni (2023-yilning yanvar-iyul oylarida – 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 15,1 % (16,6 %), o'rta-quyi texnologiyali – 23,9% (22,9%) va quyi texnologiyalisi – 52,6% (53,4%)ni tashkil etdi.






## Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar-iyul oylarida metallurgiya sanoati 169,4 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,8%ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 124,2 % ni tashkil etgan.


2023-yilning yanvar-iyul oylarida metallurgiya sanoati 112,1 mlrd.soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,7%ni etdi oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 192,8 %ga koʻpaydi.



## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 12,4 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 104,5 % ga oʻsgan va ishlab chiqarish hajmi 2 530,5 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 13,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 116,1 % ni tashkil etgan.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish


2024-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,9 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 100,6 %ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 2 646,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 104,0 % ni tashkil etgan.

## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2024-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 0,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 32,3 %ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 112,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.


2023-yilning yanvar-iyul oylarida ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 1,9 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 133,1%ga o'sgan.



## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2024-yilning yanvar-iyul oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 25,3% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 3,8 %ga o'sgan holda ishlab chiqarish hajmi 5 617,4 mlrd.so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 32,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 92,0 % ni tashkil etgan.




## Kiyim ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,8%, fizik hajm indeksi 118,2 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 1 599,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,0 %ni, fizik hajm indeksi esa 134,8 % ni tashkil etgan.




## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 9,8 %ni, fizik hajm indeksi 93,6 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1 995,7 mlrd.so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 12,3 %ni fizik hajm indeksi esa 101,6 %ni tashkil etgan.

## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarining ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 5,2 %ni, fizik hajm indeksi 120,7 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1 065,0 mlrd.so'mni tashkil etdi. Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,6 %ni fizik hajm indeksi esa 75,2% ni tashkil etgan.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,3 %ni, fizik hajm indeksi 117,8 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 879,1 mlrd.so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,9 %ni fizik hajm indeksi esa 138,3 % ni tashkil etgan.

### Elektr uskunalari ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoatda elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 1,3 %ni, fizik hajm indeksi 136,1 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 270,1mlrd. so'mni tashkiletdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 %ni fizik hajm indeksi esa 201,0 % ko'paygan.




### Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 %ni, fizik hajm indeksi 116,6 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 625,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,2 %ni fizik hajm indeksi esa 107,9 % ni tashkil etgan.




### Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,6%, fizik hajm indeksi 38,6 %ga o'sdi hamda ishlab chiqarish hajmi 742,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,0 %ni fizik hajm indeksi esa 132,4 %ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan 2024-yil yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 471,3mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,6 %ini) tashkil etadi.


2024-yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta‘minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 512,8 mlrd. so‘mga ko‘payganligi kuzatildi.



**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyul	2024- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	203,4	190,0	-13,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	987,2	758,2	-229,0

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 186,8 mlrd.so'mni (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 0,8 %ini) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyul	2024- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	10,2	21,4	11,2
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	11,8	17,8	6,0


O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 21,4 mlrd. so'm yoki 2,1 martaga ko'payganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarini tindirgichlarini va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 17,8 mlrd. so'm va 51,0 %ga ko'paygan.

## Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 5 362,7 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 24,2 %ni tashkil etdi.


### Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da

2023-yil yanvar-iyul



■ Xorijiy korxonalar  
■ Boshqa korxonalar


2024-yil yanvar-iyul



■ Xorijiy korxonalar


### Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi (mlrd.so‘m)da

2023-yil yanvar-iyul



Xorijiy korxonalar  
Boshqa korxonalar

2024-yil yanvar-iyul




Xorijiy korxonalar  
Boshqa korxonalar

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi 2024-yilning yanvar-iyul oylarida (jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, %da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 11 440,4 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 51,6 %ni tashkil etdi. Yillar kesimida taqqoslaganda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi o‘sib borayotganligini kuzatish mumkin. Ushbu ko‘rsatkich viloyatda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlariga aholining talabi o‘sib borayotganligini hamda eksport hajmi ko‘payotganligini bildiradi.

**Jami sanoat  
mahsulotlari hajmidagi  
ulushi,  
%da**



**Kichik biznes subyektlari  
tomonidan ishlab chiqarilgan  
sanoat mahsulotlari hajmi  
(mlrd.so‘m)**

